

**ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDAGI MIFOLOGEMALAR TAHLILI
(“JANNATGA YO‘L” DOSTONI MISOLIDA)**

Isroilova Maxtuma Ne'matillayevna,
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti,
2-bosqich magistratura tinglovchisi
maxtumaisroilova51@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Abdulla Oripov ijodida mifologemalarning qo'llanilishi va ularning badiiy, falsafiy funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning markazida “Jannatga yo'l” dostonidagi esxatologik obrazlar (Qiyomat, Shayton, Jannat, Do'zax va h.k.) turadi. Maqolada qiyosiy-tarixiy, germevntik va kontent-tahlil metodlaridan foydalanilgan holda, an'anaviy mifologik syujetlarning zamonaviy she'riy matndagi transformatsiyasi ochib berilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, shoir mifologik obrazlarni shunchaki tasvir vositasi emas, balki inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni va ijtimoiy-axloqiy muammolarni ifodalashning muhim va ta'sirchan vositasi sifatida qo'llagan.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov, mifologema, “Jannatga yo'l”, esxatologiya, Qiyomat, Shayton, badiiy talqin, germevntika, kontent-tahlil.

Аннотация. В данной научной статье анализируется использование мифологем в творчестве Героя Узбекистана и народного поэта Абдуллы Орипова, их художественные и философские функции. В центре исследования – эсхатологические образы в поэме “Путь в рай” (Судный день, Сатана, Рай, Ад и др.). В статье с использованием сравнительно-исторического, гермеvntического методов и контент-анализа раскрывается трансформация традиционных мифологических сюжетов в современном поэтическом тексте. Результаты показывают, что поэт использовал мифологические образы не просто как средство изображения, а как важное средство выражения конфликтов в человеческой психике и социально-нравственных проблем.

Ключевые слова: Абдулла Орипов, мифологема, «Путь в рай», эсхатология, Судный день, Сатана, художественная интерпретация, гермеvntика, контент-анализ.

Abstract. This scientific article analyzes the use of mythologemes in the work of the Hero of Uzbekistan and people's poet Abdulla Oripov, their artistic and philosophical functions. At the center of the study are the eschatological images in the poem “The Way to Heaven” (Judgment Day, Satan, Heaven, Hell, etc.). Using comparative-historical, hermeneutical methods and content analysis, the article reveals the transformation of traditional mythological plots in a modern poetic text. The results show that the poet used mythological images not just as a means of representation, but as an important and effective means of expressing conflicts in the human psyche and socio-ethical problems.

Keywords: Abdulla Oripov, mythologeme, “The Way to Heaven”, eschatology, Judgment Day, Satan, artistic interpretation, hermeneutics, content analysis.

Kirish. Mif – insoniyatning ilk tafakkur mahsuli bo'lib, u badiiy adabiyot uchun bitmas-tuganmas ma'no va obrazlar manbayidir. Zamonaviy adabiyotshunoslikda “mifologema” tushunchasi mifning badiiy matn ichidagi yangicha yashash shakli sifatida qaraladi. Adabiyotshunoslikda mifologema tushunchasi shunchaki qadimiy afsonalarning badiiy matnga ko'chishi emas, balki insoniyatning jamoaviy xotirasida saqlanib qolgan obrazlarning ijodkor qalbida qayta tug'ilishidir. Abdulla Oripov she'riyati bu borada o'ziga xos laboratoriya vazifasini o'tashi bilan bir qatorda adib o'zbek milliy tafakkurini dunyo miqyosiga olib chiqqan fenomendir. A.Oripov she'rlarining g'oyaviy olami uning lirikasi orqali o'zbek she'riyatiga ko'ngil dardlarining sur'atlari, ruhiy iztiroblar

manzarasi, armonga aylangan orzular inson sezimlarida qoldirgan iz tasviri kirib keldi. Bu she'riyat yuzaga kelgan davrda shaldiraq so'zlarni qofiyaga solish, baxtiyorlik haqida ko'tarinki satrlar tuzish odat edi. Mavzuni she'r emas, balki she'rni mavzu mukarram qiladi deb hisoblanar, shuning uchun she'rning qanday yozilishidan ko'ra, uning nima haqda ekanligi muhimroq sanalardi. Shoir mifga tashqi bezak sifatida emas, balki borliq mohiyatini anglash vositasi sifatida yondashadi. Uning nazmida mifologik tafakkur zamonaviy insonning ruhiy iztiroblari va ijtimoiy qarashlari bilan sintezlashib ketadi.

Adabiyotlar sharhi. Mifologemalar Oripov nazmida shunchaki o'tmishning aksadosi emas, balki "bugungi inson kim?" degan savolga javob izlovchi poetik vositadir. Shoir folklor namunalariga, xalq rivoyatlari va afsonalaridagi purhikmat falsafiy-didaktik fikrlarga tayanib muhim falsafiy-badiiy xulosalar chiqaradi. Bu borada Abdulla Oripov she'riyati o'ziga xos xususiyatga ega, albatta. Bu jihatning o'ziga xosligi shundaki avvalo, shoir bu masalada barchamizga tanish bo'lgan an'anaviy mavzularni tanlaydi va ana shu jarayonda adabiy voqelikning yangi qirralarini shoirona idroki bilan qayta kashf etadi. Shuningdek, yangilanayotgan mazmun-mohiyat talabidan kelib chiqib, o'ziga xos badiiy shakl tanlaydi va mavzuni bugungi zamon ruhi bilan bog'lab o'quvchi hukmiga taqdim etadi. Shu ma'noda M.Qo'shjonovning: "Abdulla Oripov qaysi bir mavzuga qo'l urmasin, undan yangi, hali birov aytmagan qirralarni topadi, o'z fikrlarini ifodalashda hali birov ishlatmagan obrazlarni ishlatadi. Shu yo'l bilan u o'zgalarni takror qilmaydigan jozibali asarlar yaratdi", [1:22] – degan fikri juda o'rinlidir. Bu narsa shoirning xalq og'zaki ijodi an'analarini o'zlashtirishida ham yorqin ko'zga tashlanadi. Xususan, xalq og'zaki ijodining barcha janrlari zamirida yangi badiiy tafakkur durdonalarini kashf etadi. Natijada rivoyat va afsonalar asosida yaratilgan asarlari oqilona fikrlar, hayajonli kechinmalar, qizg'in ruhiy holatlarda tasvirlangan obrazlar bilan jonlanadi. O'quvchining e'tiborini tortgan va hayajonga solgan bu go'zal badiiy obrazlar shoirning chinakam kashfiyoti, individual izlanishlari samarasi o'laroq yuzaga chiqadi. Abdulla Oripov she'riyati negizidagi xalqona badiiy tafakkur omillari, shoir ijodiga og'zaki ijod ta'siri masalalarini o'rganar ekanmiz, shoirning rivoyat, mif va afsonalarga ma'lum ishlov berganini yoki ularni asar g'oyasiga singdirib yuborganini ko'ramiz. Lekin ijodkorning xalq og'zaki ijodidan foydalanishdagi ijodiy prinsipi aslo o'zgarmaydi. Ularni xarakter qirralarini ochish orqali personajlar nutqini individuallashtirish, voqelikni haqqoniy tasvirlash maqsadiga xizmat qildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Oripov mifni diniy qobiqdan chiqarib, uni umuminsoniy etika darajasiga ko'taradi. Agar Alisher Navoiy davrida mifologik obrazlar an'anaviy ramzlar tizimiga bo'ysungan bo'lsa, Oripovda bu obrazlar zamonaviy psixologizm va ijtimoiy tahlil bilan boyitiladi. Shoirning "Jannatga yo'l" (1978) dostoni va keyingi bir qator turkum she'rlarida mifologik qatlam markaziy o'ringa chiqadi. "Jannatga yo'l" dostoni Abdulla Oripov ijodida mifologik va diniy-falsafiy qatlamlarning eng yorqin ifodalangan namunalaridan biridir. Bu asarda shoir

an'anaviy diniy miflarni (insonning o'limidan keying holati, oxirat, Qiyomat) olib, ularni zamondosh insonning ma'naviy qiyofasini ochib berish uchun ishlatadi. Ushbu maqolada aynan Abdulla Oripov poetik olamida mifologemalarning o'rnini aniqlash va ularning badiiy transformatsiyasi tamoyillarini yoritib berishdan iborat. Ushbu maqolada Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" dostoni va boshqa she'rlaridagi mifologik obrazlarni tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy metodlarning kombinatsiyasi ko'rib chiqamiz.

Tahlillar va natijalar. Mifopoetik tahlil: Matndagi mifologik arxetiplar va ularning badiiy transformatsiyasi darajasi aniqlaydi. Ushbu metod orqali an'anaviy mifologik motivlarning va obrazlarning kelib chiqishi, ularning shoir ijodida qanday o'zgarishga uchraganligi va milliy esxatologik tasavvurlar bilan bog'liqligi mavjud.

Germenevtik(matnlarni, belgilarni tushunish va izohlash)metod: Shoir tomonidan qo'llanilgan diniy va mifologik "kod"lar (masalan, "Shayton" obrazi) ning zamonaviy ijtimoiy-axloqiy ma'nolari ochib beradi. Matnni talqin qilishda, uning ichidagi yashirin ma'nolarni va ramzlarning badiiy qatlamlarini ochishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu metod obrazlarning nafaqat diniy, balki falsafiy-estetik mohiyatini anglashga imkon berdi. Kvantitativ kontent-tahlil(ma'lumotni statistik tahlil qilish): She'rlar va dostonlardagi mifologik leksemalar, mavzu va motivlarning takrorlanishi hamda ularning tematik kategoriyalarini aniqlash uchun ishlatiladi.

Natijada "Jannatga yo'l" dostonidagi esxatologik mifologemalar "Qiyomat" mifologemasi asarning kompozitsion o'zagini tashkil etadi. Shoir tasvirida Qiyomat – bu osmonning yorilishi emas, balki inson vijdonining yorilishidir. Qiyomat va vijdon sudi: Abdulla Oripov nazmida Qiyomat obrazi shunchaki oxirat manzarasi emas, balki vijdon sudining ramzidir. Dostonda Qiyomat – bu insonning o'z qilmishlari uchun yakuniy va muqarrar javobgarligining ifodasidir.

Mizan (Mezon/Tarozu) Oripovda bu mifologema moddiylashadi. Mezon pallasiga qo'yilgan amallar orqali shoir "savob" va "gunoh" tushunchalarini yangicha talqin qiladi. Masalan, doston qahramonining jannatga intilishi orqali xudbinlik va samimiylilik o'rtasidagi kurash ko'rsatib beriladi. Shayton mifologemasi esa an'anaviy "shoxli maxluq" emas, balki o'ta mantiqli, aqlli va hatto ba'zan haqiqatni aytuvchi "argumentator" sifatida tasvirlaydi. U insonning ichki "men"idagi illatlarning intellektual in'ikosidir. Shayton obrazi shoir lirikasida inson ruhiyatidagi ziddiyatli qutb sifatida namoyon bo'ladi. U tashqi kuch emas, balki insonning ichki nafi va manfaatlari bilan bog'liq holda tasvirlanadi.

Jannat va Do'zax: Bu ikki obraz kontrast usulida beriladi. Do'zax ijtimoiy-axloqiy ogohlantirish vazifasini bajarsa, Jannat mukofotning ifodasi bo'lib, unda ilohiy nur tasvirlari markaziy o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Jannatga yo'l" dostonida mifologik obrazlar ma'lum bir tahliliy tizim asosida joylashtirilgan.

Abdulla Oripov she'riyatidagi mifologemalar – bu shunchaki badiiy tasvir vositasi emas, balki shoirning dunyo va inson haqidagi teran falsafiy xulosalarini jamlagan poetik kodlardir. Tahlil davomida aniqlandiki, shoir mifologik tizimni zamonaviy insonning ichki

dunyosi bilan bog'laydi. Masalan, Shayton va Farishta obrazlari orqali inson ruhiyatidagi "ezgulik" va "yovuzlik" kurashi miqyoslashtiriladi. A.Oripov an'anaviy diniy obrazlarni transformatsiya qilishda xalq og'zaki ijodi va milliy mifologik tizimga tayanadi.

Xulosa. Abdulla Oripov ijodida mifologemalarning qo'llanilishi shoirning badiiy tafakkuri naqadar keng ekanligidan dalolat beradi. "Jannatga yo'l" dostoni misolida ko'rilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki: Mifologik obrazlar dostonning g'oyaviy asosini tashkil etadi. Shoir an'anaviy miflarni zamon muammolari va inson ruhiyatini ochish uchun yangi ma'nolar bilan boyitadi. A.Oripovning mifopoetikasi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning sintezidan iborat. Abdulla Oripov o'zbek she'riyatida mifologizmlarni yangi bosqichga ko'tardi. Shoirning mifologik olami insonni o'ziga qaytaruvchi ko'zgudir. "Jannatga yo'l" dostonidagi mifologemalar insonning o'zligini anglashi uchun xizmat qiluvchi estetik filtr vazifasini o'taydi. A.Oripov Shayton, Qiyomat va Jannat kabi klassik tushunchalarni "insonshunoslik" fanining poetik terminlariga aylantira oldi. Shoirning mifologik tafakkuri milliy adabiyotimizni jahon falsafiy oqimlari bilan bog'lovchi ko'priki bo'lib xizmat qilmoqda.

Nega Abdulla Oripov mifologemaga murojaat qildi? Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, realistik tasvir vositalari inson ruhiyatidagi o'ta murakkab, metafizik o'zgarishlarni ifodalashga ojizlik qilganda, shoir mifologemalarni qo'llaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davronova M.I. va boshqalar. Mythology in Abdulla Oripov's Poetry. – Journal of Law and Sustainable Development, 11(12), 2023.
2. Narziyeva M.N. Abdulla Oripov ijodida tabiat manzaralari talqini. – Journal of Natural Science, 2(1), 2023.
3. Gafurovich S.A. "Kuz xayollari" she'ri tahlili. – American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(1), 2021.
4. Boboqulova D. Lirikada obraz va obrazlilik (Abdulla Oripov she'riyati misolida). – O'zbek tili va adabiyoti konferensiyasi, 2023.
5. Majidovna G. Metaphorization of Mythological Images in Modern Uzbek Poetry. – International Journal of Recent Technology and Engineering, 2020.
6. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 1-2 jildlar. – Toshkent: Sharq, 2012.